Raqamli ma’lumotlar, agar ular ahamiyat kasb etsa, jadvallar ko‘rinishida taqdim etiladi.

Jadval – qisqa sarlavhalar va tartib raqamlari bilan to‘ldirilgan gorizontal va vertikal grafalar tizimidir. Tematik sarlavhalar, grafalar sarlavhalarning takrorlanishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak, so‘zlar takrorlanmasligi lozim.

Asosiy sarlavha (qoida bo‘yicha birlikda, bosh kelishikda) jadvalning o‘ziga bosh harflar bilan yoziladi. Tobe sarlavhalar kichkina bosh sarlavhalar aniq va sodda bo‘lishi lozim.

Jadvallar mavzu va mazmuniga ko‘ra tartib raqam va nomga ega bo‘lishi kerak. Barcha jadvallar matn bo‘yicha arab raqamlari bilan belgilanadi. Jadvalning yuqori o‘ng qismida, "...-jadval” so‘zi yoziladi. Masalan, "6-jadval” nuqta qo‘yilmaydi, № belgisi berilmaydi. Agar jadval bitta bo‘lsa "jadval” so‘zi yozilmaydi. Jadvalning tematik sarlavhasi sahifaning o‘rtasida joylashtiriladi, bosh harflar bilan yozilib, oxiriga nuqta qo‘yilmaydi. Jadvalda qisqartmalarga yo‘l qo‘yilmaydi.

Raqamlashlash butun ish davomida yoki alohida boblar bo‘yicha amalga oshirilishi mumkin. Ikkinchi holatda jadval ikkita raqamli bo‘lib, raqamlar orasiga nuqta qo‘yiladi.
Agar jadval bitta standart varaqqa sig‘masa, uning davomini keyingi sahifada berish mumkin. Bunda jadval sarlavhasi takrorlanadi va "6-jadvalning davomi”  degan so‘zlar yoziladi. Agar sarlavha katta bo‘lsa, uni qaytadan yozish shart emas, grafalar nomerlanadi va keyingi sahifada davom ettiriladi.

Barcha raqamli ma’lumotlar bir xil, taqqoslanishi mumkin bo‘lishi kerak, ularni guruhlash asosini muayyan belgilar tashkil etishi lozim.

Chop etilgan materiallardan olingan jadvallardan foydalanilganda uning qaerdan olinganini ko‘rsatish lozim. Jadvalning grafalarida bo‘sh joylar qolmasligi kerak. Agar ma’lumot bo‘lmasa "tire” qo‘yiladi yoki "yo‘q” so‘zi yoziladi. Matnda jadval haqida so‘z borsa havola qilinadi (1.1-jadval). Aytaylik, bu birinchi bobning birinchi jadvali.

***© Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti - 2024***